

**BOSHLANG'ICH TA'LIMNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

**Temirova Gavhar Bahodir qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

**Buxorova Mahliyo Ikrom qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'limni o'qitishda axborot texnologiyalarining rolini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limda, interaktiv vositalar va onlayn resurslar o'quvchilarning bilimni kengaytiradi, darslarni yanada qiziqarli va foydali bo'lishini ta'minlaydi. Smartfonlar, kompyuterlar va boshqa texnologiyalar yordamida boshlang'ich ta'lim darslarida vizual materiallar, videolar va simulyatsiyalar orqali murakkab mavzularni tushuntirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu usul o'quvchilarni keng bilish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, interaktiv o'qitish, multimedia vositalari, o'qitish metodlari, virtual laboratoriya.

**Annotation:** It is important to study the role of information technology in the teaching of primary education. In modern education, interactive tools and online resources expand students' knowledge, ensuring that classes are more interesting and useful. With the help of smartphones, computers and other technologies, it is possible to explain complex topics in elementary education lessons through visual materials, videos and simulations. This method develops students with extensive knowledge and analysis skills.

**Keywords.** Information technologies, interactive teaching, multimedia tools, teaching methods, virtual laboratory.

**Аннотация:** Изучение роли информационных технологий в обучении начальному образованию имеет большое значение. В современном образовании интерактивные инструменты и онлайн-ресурсы расширяют знания учащихся, делая уроки более интересными и полезными. С помощью смартфонов, компьютеров и других технологий на уроках начального образования появляется возможность объяснять сложные темы с помощью наглядных материалов, видео и симуляций. Этот подход развивает аналитические навыки студентов и их широкое понимание.

**Ключевые слова:** Информационные технологии, интерактивное обучение, мультимедийные инструменты, методы обучения, виртуальная лаборатория

**Kirish**

Boshlang'ich ta'lim — bolalarga boshlang'ich umumiy ma'lumot beradigan umumta'lim o'quv-tarbiya berish. Uning vazifasi o'quvchilarda yozish, o'qish, hisoblash malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat haqida ilk bilimlar berish, xulq-odobga o'rgatishdir. Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkinligini ko'rsatmoqda. O'quvchilarga boshlang'ich ta'lim tushunchalarini yanada yaxshiroq anglashda yordam beruvchi interaktiv dasturlar, onlayn platformalar va multimedia vositalarini ishlatish talab etiladi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar murakkab kontseptsiya va jarayonlarni vizual tarzda ko'rish, o'z bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Natijada, boshlang'ich ta'limni o'qitish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. O'sha sababli, axborot texnologiyalarini integratsiya qilish, boshlang'ich ta'limni o'qitish jarayonida zaruriy vosita hisoblanadi. Multimedia resurslar rasm, video va animatsiyalar yordamida biologik jarayonlarni ko'rsatish, murakkab mavzularni yengillashtiradi. Onlayn platformalar ya'ni elektron darsliklar va ta'lim resurslari ta'limning qizg'inligini oshirish, o'quvchilarga o'z-o'zini o'rganish imkonini beradi. Amaliy tajribalar qilish uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar o'quvchilarga xavfsiz sharoitda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari

yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning bilimini baholash va ularning natijalarini tezda tahlil qilishlari mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Interaktiv darslar va boshqalar darslar o'quvchilarga amaliy jarayonlarning vizual tasvirini taqdim etish orqali o'qitishga qiziqish ortishini ta'kidlaydi. Onlayn resurslar Smith va Jeyms (2020) onlayn tajribalar va laboratoriyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.[1,2] O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligi (2022) boshlang'ich ta'limni o'qitish jarayonida multimediyaga vositalaridan foydalanish amaliyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalarining integratsiyasi o'qitish jarayonini takomillashtiradi va o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim bo'yicha bilimlarini kengaytiradi.

**Tadqiqot metodlari.** Ilmiy tadqiqot, so'rovlar va statistik tahlillar orqali o'quvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini o'lchash mumkin. Intervyu va fokus-guruhlar o'tkazish, o'qituvchilar va o'quvchilar fikrlarini o'rganish, eksperimental metodlarda foydalanish axborot texnologiyalarini qo'llashdan oldin va keyin o'quvchilarning bilim darajasini taqqoslash uchun nazorat va tajriba guruhlarini tashkil etish.[6] Mavzuga oid ilmiy maqolalar, darsliklar va o'quv materiallarini tahlil qilish, amaliy tadqiqotlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llab, natijalarni kuzatish va baholash, bu metodlarni o'qitishda axborot texnologiyalarining samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

**Natija va muhokama.** Axborot texnologiyalari (AT) yordamida o'qitish o'quvchilarning boshlang'ich ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam berdi. Interaktiv o'yinlar va multimediyaga materiallar ko'proq jalb qildi. O'quvchilar AT orqali boshlang'ich ta'lim ko'nikmalarini mustahkamlashdi va o'qituvchilarning kuzatishlariga ko'ra, darslardan so'ng baholar oshdi.[9] Axborot texnologiyalaridan foydalangan o'quvchilar bilim darajasida aniq farqlar ko'rsatdi, ammo zamon va hududiga qarab imkoniyatlar farq qilishi kuzatildi. Axborot texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim darslarida qo'llanilishi o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Biroq, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarning AT bo'yicha tayyorgarligi muhimdir. Resurslar va infratuzilma ham muhim o'rin tutadi. [4] Kelgusida ATni yanada rivojlantirish va oddiy darslarga integratsiya qilish istiqbollari ko'rib chiqish zarur. O'qitish jarayonida axborot texnologiyalardan har tomonlama qo'llash, o'quvchilarning tajribasini oshirishga yordam beradi va darslarni yanada samarali o'tilishiga erishiladi.

**Xulosa.** Axborot texnologiyalarining boshlang'ich ta'limni o'qitishda qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli holga keltiradi. Axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini interaktiv va ko'p tomonlama qilish, o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganish va faol ishtirokini rag'batlantiradi. Materiallarning turli xil bo'lishi multimediyali va vizual materiallar boshlang'ich tushunchalarni yaxshiroq tushunishga va eslab qolishga yordam beradi. Qo'shimcha resurslar va online platformalar yordamida bilim olish imkoniyatlari kengayadi va o'quvchilar uchun muhim qo'shimcha resurslar taqdim etiladi. O'qituvchilar axborot texnologiyalarni zamonaviy pedagogik usullarga yilma-yil qiyoslash orqali o'qitishni yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shunday qilib, axborot texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim darslarida qo'llanilishi ta'limni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Berdiyeva, Gulnoza, and Avazbek Narzulloyev. "VIRTUAL BORLIQ VA UNING TURLI SOHALARDA QO'LLANILISHI." Solution of social problems in management and economy 3.4 (2024): 18-23.
2. Berdieva, Gulnoza. "The Role, Importance And Relevance Of Information Technology In The Motivational Phase Of Teaching." The American Journal of Applied sciences 3.04 (2021): 334-338.
3. Berdiyeva, Gulnoza. «TA'LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH.» THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH Turkey International scientific-online conference 28.04(2022): 150-152.

4. Berdiyeva, Gulnoza. « Электрон таълимни ташкил этиш ва ахборот тизимлари таҳлили.» Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириу Илмиу-методикалик журнал 3.3(2022): 121-123.
5. Berdiyeva, G. "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI OQITISHDA MASOFAVIY TALIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI." Экономика и социум 12-1 (91) (2021): 146-150.
6. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
7. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
8. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).
9. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA HOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).
10. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).